GEFF[1] O‘zbekiston

Mamlakat:	O‘zbekiston
Loyiha raqami:	49771
Faoliyat sohasi:	Omonat mablag‘lari hisobidan kreditlar (banklar)
Xabarnoma turi:	XUSUSIY
Ekologik toifasi	FI (fiskal vositachilik)
Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi:	2018-yil, 12-dekabr
Qaysi bosqichda ekanligi:	Konsepsiya ko‘rib chiqilgan
Loyihaning qisqacha mazmuni (LQM) chop etilgan sana:	2018-yil, 6-noyabr

Loyiha mazmuni

O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirish loyihasini (“GEFF O‘zbekiston”, “Loyiha”) yaratish Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YTTB) mamlakatdagi ilk “Yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirish loyihasidir. Umumiy byudjeti 60 million AQSH dollari yoki shuning o‘zbek so‘midagi ekvivalenti bo‘lgan mazkur loyiha mahalliy hamkor moliya muassasalariga (HMM) ajratiladi. GEFF O‘zbekiston xususiy sektordagi malakali sub-qarz oluvchilar tomonidan amalga oshiriladigan, “yashil iqtisodiyot”ga investitsiya qiluvchi subyektlarni moliyalashtirish uchun mablag‘ ajratuvchi HMM uchun mo‘ljallangan. Mazkur loyiha Yevropa Ittifoqi (“YI”), YTTB aksiyadorlarining maxsus jamg‘armasi (SSF) va boshqa potensial donorlarning grant mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi.

Loyiha maqsadi

Ushbu loyiha O‘zbekistondagi barqaror iqtisodiy rivojlanish va korxonalarning raqobatbardoshligiga to‘sqinlik qilayotgan yuqori darajadagi energiya va uglerod sarfini muvofiqlashtirishga harakat qiladi. Ayni vaqtda, energiya bahosining pastligi “yashil texnologiyalar” va amaliyotlarni mahalliy bozorda tatbiq etishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli Loyihaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: (i) “yashil texnologiyalar”ga qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirish; (ii) energiya samaradorligi sohasiga qilinadigan investitsiyalarning tijoriy yashovchanligini namoyish qilish; (iii) O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishini rag‘batlantirish.

O‘tish davri ta’siri

Mazkur loyiha quyidagilar orqali O‘zbekistonda tijoriy energiya samaradorligi sohasini kreditlashga ko‘maklashish orqali “yashil iqtisodiyot”ni yaratishga yordam beradi: (i) ilg‘or “yashil texnologiyalar va mahsulotlar”ga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish; (ii) manfaatdor tomonlar va banklarni “yashil iqtisodiyot” bo‘yicha ilg‘or qarorlarning salohiyati haqidagi xabardorlik darajasini oshirish; (iii) HMM, sub-qarz oluvchilar va vositachilarga “yashil

[1] GEFF - Green Economy Financing Facility – “Yashil iqtisodiyot”ni moliyalashtirish loyihasi

iqtisodiyot”ga oid loyihalarni rivojlantirish va moliyalashtirish borasidagi tajribalarni o‘rtoqlashish;

Mijoz haqida

O‘zbekistonda tashkil qilingan va shu yerda faoliyat olib boruvchi mahalliy davlat banklari va xususiy banklar, faoliyati bank sohasiga oid bo‘lmagan moliyaviy muassasalar HMM sifatida ko‘rilishi mumkin.

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag’

60 000 000,00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

60 000 000,00 AQSH dollari

Ekologik-ijtimoiy xulosa

Tasniflangan FI (ESP 2014). Barcha Hamkor moliyaviy muassasalar YTTBning Loyihalarni amalga oshirish talablari (LT) 2,4 va 9-bandlariga mos kelishi, shuningdek, Bankga Yillik atrof-muhit va ijtimoiy soha bo‘yicha yillik hisobotlarni taqdim etishlari kerak.

Texnik ko‘mak

GEFF O‘zbekiston quyidagilarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan keng qamrovli texnik ko‘mak (TK) dasturini amalga oshirish nazarda tutilgan: (i) Loyihani amalga oshirish; (ii) “yashil investitsiya” to‘g‘risidagi umumiy xabardorlik darajasini oshirish; (iii) barcha manfaatdor tomonlar salohiyatini ko‘tarish. TK ham HMMga, ham sub-qarz oluvchilarga ajratiladi.

Loyiha maslahatchisi tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (i) Loyihani ishga tushirish va boshqarish; (ii) bozor haqida umumiy xabardorlik darajasi; (iii) salohiyatni ko‘tarish va tegishli vositalarni yaratish; (iv) sub-qarz oluvchilarning salohiyatini ko‘tarish; (v) sub-loyihalarni tasdiqlash, monitoring qilish va YTTBga hisobot berish.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma’lumot

Biznes hamkorlik

Biznes hamkorlik yoki xarid/ta’minot masalalarida mijoz kompaniyaga murojaat qilishingiz mumkin.
Davlat sektori loyihalari uchun YTTBning Xaridlar bo’yicha vebsaytiga tashrif buyuring
Tel: +44 20 7338 6794
elektron pochta: procurement@ebrd.com

Umumiy so`rovlar

YTTB loyihalariga tegishli, xarid/ta’minot masalalari bo’lmagan, boshqa ma’lumotlar uchun:
Tel: +44 20 7338 7168;
Elektron manzil: projectenquiries@ebrd.com

Axborot taqdimlash amallari (ATA)

Axborot taqdimlash amallari YTTBning strategiyasi, ichki nizomlari va jarayonlari borasidagi ma’lumotlarni ommaga qanday taqdim etilishi va tegishli manfaatdor tomonlar bilan YTTB qanday muloqot qilishi tartiblarini belgilaydi. Marhamat qilib, Axborot taqdimlash amallari sahifasiga tashrif buyuring va Davlat sektori bo’yicha Kengash hisobotini so’rab oling.

ATA sahifasi

Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi

Loyiha yuzasidan shikoyat qilish vositasi YTTBning ma’suliyatni o’z bo’yniga olish vositasidir. Mazkur vosita jismoniy shaxslar va tashkilotlardan olingan YTTB moliyalashtirgan loyihalar ekologik va/yoki ijtimoiy zarar yetkazgani bo’yicha da’volarni yoki yetkazishi mumkin bo’lgan holatlar bo’yicha shikoyatlarni xolisona ko’rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shikoyat qilish uchun Loyiha yuzasidan shikoyat qilish sahifasiga tashrif buyuring. Sizning shikoyat qilish bilan bog’liq savollaringizga, jumladan shikoyatni qanday topshirish va uni ro`yxatdan o`tkazish hamda muvofiqlik mezonlari yuzasidan Shikoyatlar bilan ishlovchi mas’ul mutaxasis (pcm@ebrd.com) Shikoyat qilish tartibiga muvofiq javob beradi